

Pastdarg'om tuman davlat
Xizmatlari markazi tomonidan qayta
ruyxatga olindi.

"24" 04 2025 yil № 2801056



"Juma Elevatori"
Aksiyadorlik Jamiyatining
USTAVI
(yangi tahrir)

Juma shahri 2025 yil

I. Jamiyatning to'liq va qisqartma nomi, joylashgan manzili, huquqiy holati.

1.1. Tuliq nomi: "Juma elevatori" aksiyadorlik jamiyati;
qisqartirilgan nomi - "Juma elevatori" AJ.

Joylashgan manzili (pochta manzilgoxi): 140133 O'zbekiston Respublikasi, Juma shahri, Fitrat kuchasi, 2-uy.

Jamiyat sayti www.jumaelevatori.uz., elektron pochta manzili: jumadon@mail.ru;

1.2. Aksiyadorlik jamiyatini to'zish, uning faoliyati va uni tugatish, aksiyadorlarning xuquqlarini himoya qilish bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning xuquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari va mazkur Ustav bilan tartibga solinadi.

1.3. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy xuquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs makomiga ega bo'ladi. Jamiyat, cheklanmagan muddatga to'ziladi.

1.4. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi xududida va undan tashqarida bank hisob varaqlari ochishga haqlidir. Jamiyat o'zining tashkiliy-xuquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq firma nomiga ega bo'ladi va qisqartirilgan firma nomiga ega bo'lishi mumkin. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan yumalok muhrga ega bo'lishi lozim. Muhrda bir vaqtning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda xam ko'rsatilishi mumkin. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

1.5. Jamiyatning joylashgan yeri, u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyga ko'ra belgilanadi. Jamiyat u bilan aloka amalga oshiriladigan pochta manziliga va elektron pochta manziliga ega bo'lishi lozim.

1.6. "Juma elevatori" AJ, bundan buyon "Jamiyat", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 aprel 1994 yildagi "O'zdonmahsulot" Davlat Konsernini "O'zdonmahsulot" Davlat Aksiyadorlik Korporatsiyasiga qayta to'zish to'g'risida"gi PF-840-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash qo'mitasining 1995 yil 27 apreldagi 123-k-PO-sonli qaroriga asosan davlat mulkining qayta to'zilishi natijasida tashkil qilingan.

1.7. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

II. Faoliyatining sohasi (asosiy yo'nalishlari) va maqsadi

2.1. Aksiyadorlik jamiyatini to'zish, uning faoliyati va uni tugatish, aksiyadorlarning xuquqlarini himoya qilish bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari va mazkur Ustav bilan tartibga solinadi.

2.2. Jamiyat o'z maqsadlariga erishish uchun faoliyat va xizmat ko'rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:

- Un mahsulotlari, non mahsulotlari, konditer mahsulotlari, makaron mahsulotlari, xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish va sotish (yetkazib berish), turli korxonalar, tashkilot va fuqarolarga turli xizmatlar ko'rsatish;

- *Qishloq xo'jaligi korxonalari va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan don mahsulotlarni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash;*
 - *G'alla ekinlar donini tayyorlash va ekish uchun qishloq xo'jaligi korxonalari va shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga yetkazib berish;*
 - *Omuxta yem ishlab chiqarish va sotish;*
 - *Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, xarid qilish, saqlash, qayta ishlov berish, qadoqlash va sotish;*
 - *Chorvachilik va parrandachilik faoliyati, chorva va parranda o'stirish va sotish;*
 - *Ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar bilan bevosita o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish, tijorat-vositachilik xizmatlarni amalga oshirish;*
 - *O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;*
 - *O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan man etilmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish;*
- Bundan tashqari qonunchilikda belgilangan boshqa faoliyat turlarini o'rnatilgan tartibda amalga oshirishi mumkin.*

2.3. Jamiyatning asosiy maqsadi jamiyatning umum xo'jalik faoliyatidan foyda olish hisoblanadi.

2.4. Shug'ullanish uchun maxsus ruxsatnomalar (litsenziya) talab etiladigan faoliyat turlari Jamiyat tomonidan faqat kerakli hujjatlarni olgandan so'ngina amalga oshiriladi.

Sh.Ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori, jamiyat aksiyalarining soni, nominal qiymati. Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish va kamaytirish

3.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

3.2. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) jamiyat mol-mulkinging jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

3.3. *Mazkur ustavni ro'yxatdan o'tkazish paytiga Jamiyat tomonidan umumiy qiymati 826 814 000 (sakkiz yuz yigirma olti million sakkiz yuz un turt ming) so'mga teng bo'lgan 418 640 (turt yuz un sakkiz ming olti yuz kirk) dona oddiy aksiyalar chiqarilgan va joylashtirilgan bo'lib, aksiya nominal qiymati 1975 so'm.*

3.4. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalar nominal qiymatini oshirish yoki qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin. Ko'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan ushbu ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtiriladi.

3.5. *Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalari miqdori - nominal qiymati 1975 so'm bo'lgan 418 640 dona oddiy aksiyalardan iborat.*

3.6. Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi

qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish, ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

3.7. Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq obuna usuli bilan belgilangan tartibda fuqarolik-huquqiy bitimlar to'zish yo'li bilan birja yoki birjadan tashqari uyushgan bozorda joylashtiriladi.

3.8. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki ko'zatuvi kengashi tomonidan, agar jamiyat ustaviga yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq ko'zatuvi kengashiga bunday vakolat berilgan bo'lsa, qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi, lekin nominal qiymatidan kam bo'lmagan qiymatda joylashtiriladi.

Jamiyatning qo'shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanganidan kam bo'lmagan narx bo'yicha amalga oshiriladi.

3.9. Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi. Jamiyatni ta'sis etish chog'ida uning aksiyalariga haq to'lash tartibi jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasida (o'zgartirish to'g'risidagi qarorda) yoki jamiyat ustavida, qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga haq to'lash esa, ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilab qo'yiladi.

3.10. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

3.11. Agar ustav kapitalini kamaytirish natijasida uning miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketsa, Jamiyat ustav kapitalini kamaytirishga haqli emas.

3.12. Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

IV. Jamiyat aksiyalarining turlari va ular bo'yicha dividendlar to'lash tartibi.

4.1. Jamiyatning aksiyalari oddiy va imtiyozli bo'lib, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

4.2. Jamiyat imtiyozli aksiyalari o'z egalariga har yili aksiyalar nominal qiymatining 25 foiz miqdorida dividend olish huquqini beradi.

4.3. Imtiyozli aksiyalar egalari jamiyat tugatilgan taqdirda uning mulklari taqsimlanayotgan paytda oddiy aksiya egalari o'rtasida mulk taqsimoti amalga oshirilgunga qadar o'z aksiyalarining nominal qiymatini oladilar.

4.4. Jamiyat o'zi joylashtirgan imtiyozli aksiyalarni olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi.

4.5. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

4.6. Jamiyatning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlarni qimmatli qog'ozlar bilan to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

4.7. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

4.8. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

4.9. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror jamiyat ko'zatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan takdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

4.10. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.

V. Jamiyatning zaxira fondi

5.1. Jamiyat sof foyda hisobidan zaxira fondini hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aniqlanadigan, jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlarni tashkil etadi.

5.2. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan takdirda, jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va jamiyatning aksiyalarini kaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maksadlarda foydalanish mumkin emas.

5.3. Jamiyat ustav kapitalining 15 foiz miqdorda jamiyat zaxira fondi to'ziladi.

5.4. Jamiyat zaxira fondiga ushbu ustavning 5.3-bandida belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5 foiz miqdorida ajratmalar o'tkazadi.

5.5. Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, majburiy ajratmalardan tiklanadi.

VI. Aksiyadorlarning huquqlari

6.1 Tegishli jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;

6.2. jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

6.3. O'ziga yetkazilgan zararining o'rnini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

6.4. Jamiyat aksiyadorlari (ishtirokchilari) o'rtasida ularning huquqlarini amalga oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda korporativ shartnoma tuzish;

6.5. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

jamiyatni qayta tashkil etish;
jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
jamiyat ko'zatuvi kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish o'z aksiyalarini olish;
jamiyatning tashkiliy to'zilmagini tasdiqlash;
jamiyatning yillik hisobotini tasdiqlash;
jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
jamiyat ko'zatuvi kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doyr qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va xulosalarini eshitish;
imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida qarorni qabul qilish;
aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;
aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
huquqlarini himoya qilish qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar jamiyatning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar jamiyatning ko'zatuvi kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

9.6. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining xammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin o'ttiz kundan kechiktirmay, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga haqli. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni ko'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

9.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda jamiyatning ko'zatuvi kengashi qonunchilikka asosan umumiy yig'ilishni chaqiruvchi shahslar quyidagilarni belgilaydi:

umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni;
umumiy yig'ilishning kun tartibini;
umumiy yig'ilish o'tkazish uchun jamiyat aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sanani;
umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga va davlat vakiliga xabar qilish tartibini;
umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik kurilayotganda aksiyadorlarga va davlat vakiliga takdim etiladigan ahborot (materiallar) ruyxatini;
ovoz berish byulletenining shakli va matnini.

Aniq masala qo'yilishini aks ettirmaydigan ta'riflarning (shu jumladan, «turli masalalar», «boshqa masalalar», «o'zga masalalar» va shu singari ta'riflarning) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

9.8. Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun jamiyat ko'zatuvi kengashi tomonidan sanoq komissiyasi to'zilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Sanoq komissiyasi tarkibiga jamiyat ko'zatuvi kengashining a'zolari, jamiyat raisi, shuningdek ana shu lavozimlarga nomzodi ko'rsatilgan shaxslar kirishi mumkin emas. Sanoq komissiyasi

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kворum bor yoki yo'qligini aniqlaydi, umumiy yig'ilishda ovoz berish huquqlarining aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarni tushuntiradi, ovozga qo'yiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi, ovoz berishning belgilangan tartibi va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqlarini ta'minlaydi, ovozlarni sanab chiqadi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi, ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma to'zadi.

9.9. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali amalga oshiriladi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish «jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasi — bitta ovoz» prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi, jamiyatning ko'zaturv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari bundan mustasno. Ovoz berish byulletenlarining shakli va matni jamiyatning ko'zaturv kengashi tomonidan tasdiqlanadi, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi jamiyat ko'zaturv kengashi tomonidan chaqirilmagan xollar bundan mustasno. Ovoz berish byulleteni umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan aksiyadorga (uning vakiliga) beriladi.

9.10. Ovoz berish yakunlari bo'yicha sanoq komissiyasi ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma to'zadi, bayonnoma jumladan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kворumi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi va sanoq komissiyasining a'zolari tomonidan imzolanadi. Ovoz berish yakunlari aksiyadorlarning ovoz berish o'tkazilgan umumiy yig'ilishida o'qib eshittiriladi, shuningdek aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin ovoz berish yakunlari to'g'risidagi hisobotni e'lon qilish orqali aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi. Ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma to'zilganidan va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi imzolanganidan keyin ovoz berish byulletenlari sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanadi hamda saqlab qo'yish uchun jamiyatning arxiviga topshiriladi. Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasiga qo'shib qo'yilishi lozim.

9.11. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay umumiy yig'ilish kotibi ikki nus'hada to'zadi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;

umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;

umumiy yig'ilishning raisi va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ro'zalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatilishi lozim.

X. Jamiyatning ko'zaturv kengashi

10.1. Jamiyatning ko'zaturv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, ushbu Qonun va jamiyat ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

10.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat ko'zaturv kengashining a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va ko'zaturv kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'lik harajatlari qoplanadi. Bunday haq va to'lovlarning miqdorlari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan «Ko'zaturv kengashi to'g'risida»gi nizomda belgilab qo'yiladi.

10.3 Jamiyat ko'zaturv kengashining vakolat doirasiga qo'yidagilar kiradi:

jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chakirish;
aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;
aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash.
aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat
aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish
to'g'risida"gi O'zbekistan Resiublikasi Qonunning 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi
xatboshisida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun
kiritish;

mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

korporativ maslaxatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni
tasdiqlash, agar jamiyat ustavida bunday lavozimni joriy etish nazarda tutilgan bo'lsa;

jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har kandy hujjatlardan erkin
foydalanish va jamiyat ko'zatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu
hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat ko'zatuv kengashi va uning a'zolari olingan
hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida, auditorlik tashkilotini va uning
xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash haqida qaror qabul qilish;

dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

jamiyatning shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini ximoya qilish
to'g'risida"gi O'zbekistan Resiublikasi Qonunining nazarda tutilgan xollarda bitimlar to'zish
haqida qaror qabul qilish;

jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni
qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'zish;

jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul
qilish;

jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kupaytirish masalalarini, shuningdek
jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kupaytirish bilan bog'lik
o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish;

emission qimmatli qog'ozlar chiqarish qarori va emissiya risolasini tasdiqlash;

avval davlat ro'yixatiga olingan qimmatli qog'ozlar chiqarish qarori va emissiya
risolasiga o'zgartirishlar kiritish;

jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga
ayrboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

jamiyatning korporativ obligatsiyalarini kaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul
qilish;

jamiyatning ijroiya organini raisini saylash (tayinlash), uning vakolatlarini
muddatidan ilgari tugatish;

ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlarini belgilash;

jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash.

Jamiyat ko'zatuv kengashining vakolat doirasiga O'zbekiston Rsspublikasining
"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi Qonuni
va jamiyat "Ko'zatuv Kengashi" to'g'risidagi nizomga muvofiq boshqa masalalarni hal etish
xam kiritilishi mumkin.

Jamiyat ko'zaturv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

10.4. Jamiyat ko'zaturv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonunining 76 moddasiga asosan uch yil muddatga saylanadi. Jamiyat ko'zaturv kengashining miqdor tarkibi 7 kishidan iborat. Jamiyatning ko'zaturv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

10.5. Jamiyat ko'zaturv kengashining raisi va kotibi, ko'zaturv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan ko'zaturv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi. Jamiyatning ko'zaturv kengashi, o'z raisini va kotibini ko'zaturv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan kayta saylashga xaqli.

10.6. Jamiyat ko'zaturv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, ko'zaturv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, agar jamiyat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi. Jamiyat ko'zaturv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini ko'zaturv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

10.7. Jamiyat ko'zaturv kengashining majlisini chaqirish va o'tkazish tartibi:

- jamiyat ko'zaturv kengashining majlisi ko'zaturv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, jamiyat ko'zaturv kengashi, raisining jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining xammasi bo'lib kamida 5 % egalik kiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) talabiga ko'ra chaqiriladi.

- jamiyat kuzaturv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum jamiyat ustavida belgilanadi, biroq u jamiyat kuzaturv kengashiga saylangan a'zolarining yetmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

- jamiyat ko'zaturv kengashining majlisi vaziyatga qarab, lekin har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Ko'zaturv kengashining majlisida ko'zaturv kengashi a'zolari, ko'zaturv kengashi tomonidan taklif kilinganlar: koorparativ maslaxatchi, jamiyat boshqaruvi raisi, jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5%ga ega bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) va boshqa shahslar qatnashishi mumkin.

- ko'zaturv kengashi majlisida jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikka tegishli masalalar va O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va mazkur ustavga asosan ko'zaturv kengashi vakolatlariga kiradigan masalalar hal qilinadi. Jamiyatning ijroiya organi ko'zaturv kengashi majlisini o'tkazishga tayyorgarlik kurish jarayonida barcha hujjatarni (ma'lumotlarni) tayyorlaydi va takdim etadi.

- Jamiyat ko'zaturv kengashi har chorakda tinglaydi:

- 1) yakka tartibdagi ijroiya organining jamiyat moliyaviy-xo'jalik faoliyati va biznes-rejasini bajarilish to'g'risidagi hisobotini;

- 2) jamiyatda affillangan shahslar bilan to'zilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va jamiyat ichki hujjatlarining bunday bitimlarni to'zishga doyr talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi koorparativ maslaxatchi xulosasini;

- 3) jamiyat ichki audit xizmatining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan ma'lumotlarning to'g'ri yuritilishi, ijroiya organi tomonidan qonunchilikka, ta'sis va boshqa hujjatlarga rioya etilayotganligi, xo'jalik faoliyatini yuritishda o'rnatilgan tamoil, qoidalarining to'liqligini ta'minlanganligi, aktivlarning saqlanganligi, hamda jamiyatni boshqarishda qonunchilikda o'rnatilgan talablarga rioya etilishi to'g'risidagi hisobotlarni tinglaydi hamda takdim qilingan hisobotlarga asosan hisobot davridagi ijroiya organining faoliyatini baholaydi va tegishli qarorlar qabul qiladi.

- Jamiyat ko'zaturv kengashining majlisini o'tkazish uchun kворum jamiyat ko'zaturv kengashiga saylangan a'zolarining oltmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak. Jamiyat

- ko'zaturv kengashi a'zolarining soni jamiyat ustavida nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo'lgan takdirda, jamiyat ko'zaturv kengashining yangi tarkibini saylash

- uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Ko'zaturv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan takdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

- Jamiyat ko'zaturv kengashining majlisida qabul qilinadigan qarorlar, majlisda hozir bo'lganlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat ko'zaturv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda ko'zaturv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 18-moddasining ikkinchi va turtinchi kismilarida, 30, 84, 88-moddalarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror jamiyat ko'zaturv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Jamiyat ko'zaturv kengashining bir a'zosi o'z ovozini ko'zaturv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi. Jamiyat ustavida jamiyat ko'zaturv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan takdirda ko'zaturv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda jamiyat ko'zaturv kengashi raisining hal qiluvchi ovoz huquqi nazarda tutiladi.

10.8. Jamiyat ko'zaturv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Ko'zaturv kengashi majlisining bayonnomasi majlis utkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay ko'zaturv kengashining kotibi to'zadi. Majlis bayonnomasida qo'yidagilar ko'rsatiladi:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda hozir bo'lgan shahslar;

majlisning kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar.

Jamiyat ko'zaturv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtiroq etayotgan jamiyat ko'zaturv kengashi a'zolari tomonidan imzolaniadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi. Jamiyat ko'zaturv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (surov yo'li bilan) jamiyat ko'zaturv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. Jamiyat ko'zaturv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Ko'zaturv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan takdirda mazkur qaror haqidagi ahborot jamiyatning ijroiya organiga ko'zaturv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

XI. Jamiyatning ijroiya organi - boshqaruv raisi

11.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati jamiyatning ustavida belgilanadigan rais tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyat ijroiya organi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va ko'zaturv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi, o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga, mazkur ustavga hamda jamiyatning "Jamiyat ijroiya organi to'g'risida"gi nizomiga tayangan holda faoliyat yuritadi.

11.2. Jamiyat ijroiya organining vakolatiga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doyr barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki jamiyat ko'zaturv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno. Jamiyatning boshqaruv raisi jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar to'zadi, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.

11.3. Jamiyatning ijroiya organlarini to'zish hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, ko'zaturv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan.

11.4. Jamiyat raisining huquq va majburiyatlari tegishincha "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonun hujjatlarida, jamiyat ustavida hamda uning jamiyat bilan uch yil muddatga to'zadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini o'zaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi. Shartnoma jamiyat nomidan jamiyat ko'zaturv kengashining raisi yoki ko'zaturv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Jamiyat raisi bilan to'ziladigan shartnomada uning jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va jamiyat ko'zaturv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak.

11.5. Mazkur ustavga asosan boshqaruv raisi:

- aksiyadorlik jamiyat nomidan ishonchnomasiz faoliyat yuritish, boshqa tashkilot va organlar bilan aloqada uning manfaatlarini ifodalaydi;

- o'z vakolati chegarasida mol-mulk, pul mablag'larini tasarruf etish;

- bitimlar va shartnomalar, shu bilan birga mexnat shartnomalarini to'zish, bekor qilish;

- ishonchnomalar berish;

- banklarda hisob va boshqa raqamlar ochish;

- o'ziga bo'ysinuvchi barcha xodimlarga majburiy bo'lgan farmon va ko'rsatmalar qabul qilish;

- xodimlar shtatini tasdiqlash, uni to'ldirish;

- jamiyatning boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlar sonini, jamiyat xodimlarining ish haqi fondini, ish haqi miqdorini aniqlash;

- ko'zaturv kengashiga filial boshqaruvchisi, korporativ maslaxatchi, jamiyat ichki auditor xizmati auditorlari lavozimiga nomzodlarni, hamda tashki auditorlik tashkilotini ko'rib chikish uchun takliflar kiritish, ular bilan mehnat shartnomalarini (bitimlarini) to'zish va bekor qilish;

- ichki me'yoriy, lokal hujjatlarni o'z vakolati doirasiga kiruvchi jamiyat hujjatlarini tasdiqlash;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan boshqa huquqlarga ega.

11.6. Mazkur ustavga asosan boshqaruv raisi quyidagi majburiyatlarga ega:

- lavozim majburiyatlarini bajarishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, ustavga, jamiyat ichki me'yorlariga va lokal hujjatlarga, jamiyat bilan to'zilgan mehnat shartnomasiga tayangan holda faoliyat olib boradi;

- jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va ko'zaturv kengashi qarorlarini bajarishni tashkillashtirish;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga belgilangan muddatlarda jamiyat moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha yillik hisobot va joriy yilda jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish bo'yicha hisobotlarni taqdim etish;

- jamiyat ko'zaturv kengashiga jamiyat moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha chorakli hisobotlarni, jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish bo'yicha hisobot, hamda ko'zaturv kengashi vakolatiga tegishli masalalar xolati bo'yicha hisobot berish;

- jamiyat moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga tegishli hujjatlarni jamiyat ko'zaturv kengashi, va auditori talabiga binoan takdim etish;

aksiyadorlarning amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan ma'lumotlarni olish,

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishida katnashish, dividendlarni hisoblash va olish huquqlariga rioya etilishini ta'minlash;
- jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish, jamiyatning barcha bo'limlari, sexlari va tarkibiy bo'linmalarining ish samaradorligini oshirishni ta'minlash;
- jamiyat faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilishni ta'minlash;
- jamiyat ijroiya organining majlislarini o'gkazishni tashkillashtirish va ularga raislik qilish;
- jamiyatning kelgusi mavsumda jamiyat rivojlanishining biznes-rejasini ishlab chiqishga rahbarlik qilish, jamiyatning tasdiqlangan joriy biznes-rejasini bajarishni tashkillashtirish va nazorat qilish;
- jamiyat tomonidan ishlab chiqarishni rivojlantirish va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yetarli darajada foyda olinishini ta'minlash;
- jamiyat tomonidan shartioma yuzasidan olingan majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash;
- jamiyatda buxgalteriya hisobi va statistik hisobotlarning aniqliligini va tegishli ravishdagi xolatini tashkillashtirish, tegishli organlarga davlat statistik hisobotlarni, hamda aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa ma'lumot oluvchilarga jamiyat faoliyati to'g'risidagi ahborotlarni o'z vaqtida topshirishni ta'minlash;
- jamoa shartnomasini to'zishda ish beruvchi bo'lib katnashish, mo'zokaralarda ijroiya organ a'zolarining ishtirok etishini ta'minlash;
- jamoa shartnomasi majburiyatlari va jamiyatning ichki tartib qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash;
- jamiyatda mehnatni himoya qilish me'yorlari, texnik xavfsizlik, mehnat va texnologik intizomga rioya qilinishini ta'minlash;
- jamiyatning texnologik uskunalari va boshqa aktivlaridan to'g'ri foydalanish va ularning butligini ta'minlash;
- jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlash, jamiyat xodimlarining bilimlari, malakalari, tajribalari va qobiliyatlaridan a'lo darajada foydalanish bo'yicha chora - tadbirlar ko'rish;
- jamiyatning tijorat sirlarini tashkil etuvchi ahborotlarni saqlash va jamiyat xodimlari tomonidan saqlanishini ta'minlash;
- o'zok muddatli xizmat safarlari va ta'til vaqtlaridan foydalanishni ko'zaturv kengashi bilan kelishish. Ko'zaturv kengashiga o'zi yo'qligida uning vazifasini bajaruvchi haqida habar berish.

11.7. Jamiyatning boshqaruv raisiga to'lanadigan haq miqdori, jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'lik bo'ladi va shartnomada belgilangan bo'lishi kerak. Jamiyatning boshqaruv raisi vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga fakat jamiyat ko'zaturv kengashining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

11.8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki jamiyat ko'zaturv kengashi jamiyat raisi bilan to'zilgan shartnomani shartnoma shartlarini bo'zgan takdirda to'g'atishga (bekor qilishga) haqli. Jamiyat ko'zaturv kengashi jamiyatning boshqaruv raisi bilan to'zilgan shartnomani, agar u jamiyat ustavini qo'pol tarzda bo'zsa yoki uning harakatlari (harakatsizligi) tufayli jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

XII Korporativ maslahatchi

12.1 Jamiyatda korporativ maslahatchi lavozimi joriy etiladi.

12.2 Korporativ maslahatchi Jamiyat Kuzaturv Kengashi tomonidan tayinlanadi va Kuzaturv kengashiga hisobdor bo'ladi.

12.3 Korporativ maslahatchi, Jamiyat va uning aksiyadorlari xamda investorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, Jamiyat faoliyatida korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi.

12.4 Korporativ maslahatchining ish faoliyati va batafsil vazifalari Jamiyat Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan "Korporativ maslahatchi to'g'risida"gi Nizom bilan belgilanadi.

XIII. Jamiyatning ichki audit xizmati.

13.1. Aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko'p bo'lgan jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati jamiyatning ko'zaturv kengashiga hisobdor;

13.2. Jamiyatning ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini tomonidan qonun hujjatlariga, jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buhgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'lik hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saklanishini, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini ishini nazorat qiladi hamda baholaydi;

13.3. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini, agar qonunda o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi;

XIV. Auditorlik tashkiloti

14.1. Auditorlik tashkiloti jamiyat bilan to'zilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi;

14.2. Auditorlik tashkiloti jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doyr boshqa ahborot haqidagi noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik hulosasi to'zilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

XV. Yakuniy koidalar.

15.1. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

15.2. Nizo va kelishmovchiliklarni mo'zokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal kilinadi.

15.3. Mazkur Ustav O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ruyxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

15.4. Mazkur ustavda ko'rsatilmagan jamiyat faoliyatiga tegishli bo'lgan masalalar O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

"Juma Elevatori" AJ
Boshqaruv raisi



X.Xasanov